

**“Smart bank” aksiyadorlik jamiyati  
Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining  
2025 yil 18 yanvardagi  
1-sonli yig‘ilish bayonnomasiga  
6-ilova**

Bank tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Ro‘yxat raqami: II-41

Sana: 20.01.2025 yil

Imzo

**“SMART BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATI  
BOSHQARUVI TO‘G‘RISIDAGI  
NIZOM  
(yangi tahriri)**

**Toshkent – 2025 yil**

Mazkur “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi to‘g‘risidagi nizom” (keyingi o‘rinlarda Nizom deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlariga hamda “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda Bank deb yuritiladi) Boshqaruvi maqomini va faoliyat yuritishini belgilaydi, Bank Boshqaruvi tomonidan amaldagi qonunchilik hujjatlariga va Bank Ustaviga muvofiq o‘z vakolatiga kiritilgan qarorlar qabul qilinishini tartibga soladi.

2. Bank Boshqaruvi Bankning kollegial ijroiya organi bo‘lib, Bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi va uning natijalari uchun javobgar hisoblanadi.

3. Bank Boshqaruvi Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Bank Kuzatuv kengashiga hisobdordir.

4. Bank Boshqaruvning a‘ziligiga hamda muhim ahamiyatga ega xodimlar lavozimlariga ko‘rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishiladi. Agar muhim ahamiyatga ega xodimlarni obyektiv sabablarga ko‘ra oldindan kelishib olishning imkoni bo‘lmasa, Bank keyinchalik rozilik olish uchun so‘rovnoma yuboriladi.

5. Bank Boshqaruvi qarorlari videokonferens-aloqa orqali ham qabul qilinishi mumkin.

### **2-bob. Bank Boshqaruvini tashkil qilish tartibi**

6. Bank Kuzatuv kengashi Bank Boshqaruvining miqdoriy tarkibini, bir kishi boshqarish vazifalarini ijro etishining eng yuqori imkon darajasi, boshqarishga harajatlarni qisqartirish tamoyillaridan kelib chiqib belgilaydi.

Bank Boshqaruvining tarkibi bo‘yicha qarorlar Bank Kuzatuv kengashi a‘zolarining oddiy ko‘pchilik ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi.

Bank Boshqaruvi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

7. Bank Boshqaruvi a‘ziligiga quyidagi shaxslar tayinlanmaydi:  
oliy ma‘lumoti bo‘lmagan;  
yetarli darajada bank-moliya va xo‘jalik qonunchiligi bilimlariga ega bo‘lmagan;  
sudlangan yoki avval o‘zining qasddan sodir etilgan g‘arazli jinoyatlar uchun sudlangan;

avval bankrotlikka uchragan yuridik shaxsga rahbar bo‘lgan bo‘lsa.

8. Boshqaruv raisi, Boshqaruv raisining o‘rinbosarlari va Bank Boshqaruvi

a'zolari amaldagi qonunchilikka muvofiq Bank Kuzatuv kengashi tomonidan o'rnatilgan tartibda tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

9. Boshqaruv raisi va a'zolari bilan mehnat shartnomasi uch yil muddatga tuziladi.

Boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomasini Bank nomidan Bank Kuzatuv kengashi raisi yoki Bank Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs imzolaydi.

Boshqaruv raisining o'rinbosarlari, bosh buxgalter va Boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomalarini Bank nomidan Boshqaruv raisi imzolaydi.

10. Bank Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, agar shartnoma tuzishda ular Bank Ustavini qo'pol tarzda buzishga yo'l qo'ygan bo'lsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Bankka zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish)ga haqli.

11. Boshqaruv raisi Boshqaruv tarkibiga qo'shimcha nomzodlar kiritish yoki Bank faoliyatidagi o'zgarishlar munosabati bilan uning miqdoriy tarkibini qisqartirish va boshqa holatlar yuzasidan hamda Boshqaruv tarkibidan ayrim a'zolari chiqarish bo'yicha takliflar kiritish huquqiga ega.

12. Bank Boshqaruvi raisi va a'zosini vazifasidan ozod qilish Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qo'yidagi hollarda amalga oshiriladi:

ixtiyoriy ravishda o'z vakolatini topshirganda;

mazkur Nizomda bayon qilingan o'z vakolat va majburiyatlarini bajarmaganda;

Markaziy Bankning tegishli ko'rsatmasi olinganda;

qasddan sodir etilgan g'arazli jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilganligi to'g'risida ma'lumot olinganda;

Boshqaruv a'zosi vazifalarini bajarish to'g'risida Bank bilan bitim tuzish jarayonida mazkur Nizomning 7-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni yashirganda.

### **3-bob. Bank Boshqaruvining vakolat doirasi va majburiyatlari**

13. Bank Boshqaruvining vakolatlariga Bank joriy faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga va Bank Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno. Jumladan, Bank Boshqaruvining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish va/yoki ijrosini ta'minlash;

Bankning siyosatlari va strategiyasini joriy etilishini hamda

biznes-reja ijrosini ta'minlash;

qonunchilik hujjatlariga asosan Bank Boshqaruvi vakolatiga kiruvchi Bankning ichki meyoriy hujjatlarini tasdiklash;

korporativ boshqaruvining zamonaviy va ilg'or uslublarini joriy etish, korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini tatbiq etilishini tashkil qilish va Bankning korporativ boshqaruvga oid siyosatni ishlab chiqish;

Bankda qonunchilik hujjatlari va halqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritilishini va moliyaviy hisobot taqdim etilishini, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshirish;

Bankning faoliyati yakunlarini, depozitlarni qabul qilish, aktivlarni joylashtirish, kreditlashni tashkil etish, hisob-kitoblar, pul muomalasi, kassa xizmati, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish masalalarini ko'rib chiqish;

Bank xizmatlarining yangi turlarini ishlab chiqish va joriy etish;

hisob-kitob xizmatlari ko'rsatish, kredit, pul va to'lov hujjatlari va xat-hujjatlarni rasmiylashtirishning umumiy shartlari va tartibini belgilash;

strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshirish;

Bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni Bank xodimlari o'rtasida o'z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta'minlashi;

Bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi;

Bankning ish amaliyotiga eng ilg'or bank texnologiyalari, Bank ishlarini kompleks avtomatlashtirish loyihalari joriy etilishini tashkil etish, zamonaviy bank infratuzilmasi yaratilishini ta'minlash;

Bank mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha xizmat haqi miqdorini belgilash;

Bank aktivlarining diversifikatsiyalanishini amalga oshirish;

Bank tomonidan Markaziy bank belgilagan iqtisodiy normativlarga hamda majburiy zahiralarni shakllantirish yuzasidan talablarga rioya qilinishini ta'minlash;

Bankning kapitali va likvidli resurslari yetarli darajada bo'lishini, aktivlarni tasniflash orqali ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar yaratilishini ta'minlash;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib hamda xalqaro standartlarga muvofiq bank buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etish;

Bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarishi, shuningdek, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga va Bank Kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, moliyaviy natijalar, Bankka nisbatan qo'llanilgan choralar hamda sanksiyalar to'g'risidagi hisobotni davriy ravishda taqdim etish;

Bank Kuzatuv kengashida ko'rib chiqish uchun Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan uzoq muddatli strategiya asosida qisqa muddatli biznes-rejalarni va Bank Kuzatuv kengashi vakolatlariga taalluqli boshqa masalalar

bo'yicha takliflar kiritish;

Bankda qonunchilik hujjatlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish;

ishchi organlarni, shu jumladan Bank qo'mitalar va komissiyalarini tuzish, ularning vakolatlarini belgilash va nizomlarni tasdiqlash;

balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada bank sof aktivlari miqdorining o'n besh foizigacha bo'lgan miqdordagi bitimlarini tuzish to'g'risida qarorlarni qabul qilish;

Bank Boshqaruvi vakolati doirasida bo'lgan qimmatli qog'ozlarni chiqarish va muomalada bo'lish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

Bank Ustavida hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

14. Bank Boshqaruvining vazifalari va majburiyatlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya etish;

o'z vakolatlarini Bank manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish;

Bankka o'z vakolatlariga mos ravishda rahbarlik qilishni ta'minlash;

mijozlarning pul mablag'larini ishonchli joylashtirish, kredit berish, to'lovlarni o'tkazish va boshqa bank xizmatlarini ko'rsatishda mijozlar ehtiyojini qondirish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

amalga oshirilayotgan bank operatsiyalaridan eng yuqori miqdorda va barqaror foyda olish;

lozim darajada hisobga olish va hisobotni ta'minlash;

Bank aktivlarini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi mutanosib ravishda zahira tashkil etish;

ichki audit tizimining faoliyat ko'rsatishi, Bank o'tkazayotgan operatsiyalarning hajmi va murakkabligiga ichki auditning muvofiq bo'lishi uchun sharoit yaratish;

har chorakda Bank Kuzatuv kengashiga Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan uzoq muddatli strategiyasi asosida ishlab chiqilgan qisqa muddatli va o'rta muddatli Biznes rejalarining ijrosi bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar ijrosi to'g'risida hisobot taqdim etish;

oshkor etilishi shart bo'lgan axborotlarning Bank sayti va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa manbalarda e'lon qilinishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bank Ustavida hamda ushbu Nizomda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

#### **4-bob. Boshqaruv raisi vakolatlari va majburiyatlari**

15. Boshqaruv raisi Bankning oliy mansabdor shaxsi hisoblanib, qonunchilik, Bank Ustavi, mazkur Nizom va Bank Kuzatuv kengashining unga bergan vakolatlariga muvofiq, Bankning butun faoliyatiga rahbarlik qiladi.

16. Boshqaruv raisi quyidagi vakolatlarga ega:

Bankning kundalik faoliyatiga tezkor rahbarlik qilish;

Bank nomidan Ustavga asosan ishonchnomasiz ish yuritish;

boshqa tashkilotlar va organlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarda Bankning manfaatlarini ifodalash;

Bank nomidan bitim va shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalarini tuzish;

Bankning ichki meyoriy hujjatlarida belgilangan tartibda uning mol-mulki va pul mablag'larini tasarruf qilish;

Bank nomidan harakat qilish uchun xodimlarga ishonchnomalar berish;

Bankning xodimlarini, filiallar, vakolatxonalar va sho'ba korxonalar rahbarlarini tayinlash, lavozim oylik maoshlarini belgilash hamda ularni lavozimdan ozod qilish;

shtat jadvallarini tasdiqlash;

Bank faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida Bankning tashkiliy boshqaruv tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish;

xodimlarni rag'batlantirish, ularga nisbatan intizomiy jazolarni qo'llash, shuningdek intizomiy jazolarni olib tashlash;

Bankning tarkibiy tuzilmalari haqidagi nizomlar va lavozim majburiyatlarini tasdiqlash;

Boshqaruv raisi o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

o'z vakolati doirasida Bank tizimida bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq, farmoyish va ko'rsatmalarni berish;

qonunchilik hujjatlariga hamda Bankning Ustavi va ushbu Nizomga muvofiq Bank Boshqaruvi raisining vakolat doirasiga kiruvchi boshqa masalalarni hal qilish.

17. Boshqaruv raisining vazifalari va majburiyatlari:

amaldagi qonunchilikka rioya qilgan holda Bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank Kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi qarorlarining ijrosini tashkil etish;

Bank Kuzatuv kengashi va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga Bank faoliyati to'g'risida hisobotlarni taqdim etish;

Bankning shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash;

Bankning buxgalteriya hisobi va hisobotining yetarli va ishonchli holatini va ishonchliligini tashkil etish va ta'minlash;

Bankni malakali xodimlar bilan ta'minlash, ularning bilimlari, malakalari, tajriba va qobiliyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko'rish;

Bank Boshqaruvi vakillarining jamoa muzokaralarida ishtirok etishini ta'minlash. Jamoa shartnomasi va bitimlarini tuzishda ish beruvchi sifatida ishtirok etish. Jamoa shartnomasidagi majburiyatlarni bajarish;

qonunchilik hujjatlaridan belgilangan boshqa vazifalar va majburiyatlarni bajarish.

18. Boshqaruv raisi Bankka yuklatilgan vazifalarning bajarilishi, Bankning shartnomalar bo'yicha qabul qilgan majburiyatlarining bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgardir.

19. Boshqaruv raisi o'z joyida bo'lmagan hollarda Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan tayinlanadigan o'rinbosarlardan biri yoki boshqa shaxs belgilangan tartibda Boshqaruv raisi vazifasini vaqtincha bajaradi.

20. Boshqaruv raisi Bankning rahbarlari va xodimlarini buyruq bilan tayinlaydi va ular bilan Bank nomidan mehnat shartnomalarini tuzadi.

### **5-bob. Bank Boshqaruvi a'zosining huquq va majburiyatlari**

21. Boshqaruv a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Boshqaruv majlisida shaxsan ishtirok etish, muhokama etilayotgan masala bo'yicha reglamentda ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish, o'z qarashlarini himoya qilish;

muayyan davr mobaynida Bank tuzilmalari faoliyatining natijalari to'g'risida to'liq va ishonarli axborotlar olish;

Boshqaruvda ko'rib chiqish uchun Bank Boshqaruvi vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha takliflar kiritish;

Boshqaruv yig'ilishi chaqirilishini talab qilish;

Bank Boshqaruvidagi faoliyati va zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajargani uchun mehnat shartnomasiga muvofiq muayyan mukofot olish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega.

22. Bank Boshqaruvi a'zolari quyidagilarga majbur:

Bank manfaatlari yo'lida harakat qilish;

Bank obro'si, uning rivojlanishi va moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga erishish;

o'z xizmat mavqeidan vijdonan, hamda Bank Ustavida yozilgan vazifalarini yaxshi bajarish yo'lida foydalanish;

bilimdonlik va mas'uliyat bilan rahbarlik qilishni ta'minlash;

Bank faoliyatini qonuniy, xavfsiz va oqilona boshqarishni amalga oshirish;

Bankning ichki nazorat tizimi faoliyatini tashkil etish;

Bank bilan bitim masalasi hal qilinayotganda bu bitimda o'zining affillangan shaxs deb e'tirof etilishi mumkin bo'lsa, Bank Boshqaruvi va Kuzatuv kengashi majlislarida hamda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qabul qiladigan qarorida mazkur masalani hal etishda qatnashmaslik;

qonunchilik hujjatlaridan belgilangan boshqa vazifalar va majburiyatlarni bajarish.

23. Bank Boshqaruvi a'zosi Bank taraflardan biri bo'lgan bitimda moliyaviy manfaatdorlikka ega bo'lgan holatda, shuningdek Bank Boshqaruvi a'zosining boshqa manfaatlar to'qnashuvi holatida Bank Boshqaruvi a'zosi bitim tuziladigan paytgacha Bank Boshqaruvini va Kuzatuv kengashini o'z manfaatdorligi to'g'risida oldindan xabardor qilishi shart, bitim to'g'risida qaror esa bunday manfaatdorlikka ega bo'lmagan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi yoki Bank Kuzatuv kengashi yoxud Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinishi kerak. Bunda, Bank Boshqaruvining manfaatdor a'zolari bunday bitim bo'yicha muhokamada ham, qaror qabul kilishda ham ishtirok etmaydilar.

24. Bank o'ziga aloqador bo'lgan shaxslar bilan tuzilgan bitimlarning alohida ro'yxatini yuritishi va Markaziy bankni Bankka aloqador shaxslar bilan bitimlar tuzilishi oldidan xabardor etishi shart.

25. Boshqaruv Raisi Bank Boshqaruvining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha majburiyat va vakolatlarni Boshqaruv a'zolari o'rtasida taqsimlaydi.

Bank Boshqaruv a'zolariga o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun Bankning ichki meyoriy hujjatlariga muvofiq haq to'lab boriladi.

26. Bank Boshqaruvi a'zolari Bank Boshqaruvi tomonidan biron-bir qarorlar qabul qilinishiga ta'sir o'tkazganligi uchun bevosita yoki bilvosita mukofot olish huquqiga ega emaslar.

27. Bank Boshqaruvi a'zolari Bank imkoniyatlaridan (mulkiy yoki nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, bank faoliyati va rejalari to'g'risidagi axborotdan) shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishga haqli emaslar.

28. Bank Boshqaruvi a'zolari Bank hisobotidagi axborotning ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi.

## **6-bob. Bank Boshqaruvi majlisi**

29. Bank Boshqaruvi majlislari Boshqaruv ish rejasiga muvofiq, oyda kamida bir marta o'tkaziladi. Bank Boshqaruvi majlislari, zaruriyat tug'ilganda, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, Bank Kuzatuv kengashi, Bank Taftishchisi, ichki audit xizmati tashabbusi bilan yoki Boshqaruv raisining, Boshqaruv a'zosining talabiga binoan navbatdan tashqari chaqiriladi.

30. Boshqaruv ish rejasida quyidagilar aks etadi:

har chorakda Boshqaruv majlislarida ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan masalalar;

Bank Boshqaruvi majlislarini o'tkazish jadvali;

Bank Boshqaruvi majlislarida ko'riladigan masalalarni tayyorlashga mas'ul shaxslar.

Boshqaruv ish rejasi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, Bank Kuzatuv kengashi, Bank Taftish komissiyasi, ichki audit xizmati, Bank Boshqaruvi, Bank



tarkibiy bo'linmalari takliflarini inobatga olgan holda Boshqaruv kotibi tomonidan shakllantiriladi va Bank Boshqaruvida ko'pchilik ovozi bilan tasdiqlanadi.

Boshqaruv ish rejasiga chorak davomida o'zgartirish va qo'shimchalar Boshqaruv raisi ruxsati bilan kiritilishi mumkin. Boshqaruv ish rejasiga kiritilgan mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Boshqaruvida ko'pchilik ovozi bilan tasdiqlanadi.

31. Boshqaruvning navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab (yoki tashabbus) Boshqaruv yig'ilishida ko'rilishi lozim bo'lgan masalalarni belgilagan hamda mazkur masalalarni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan materiallar va qaror loyihalarini ilova qilgan holda yozma ravishda rasmiylashtiriladi va Boshqaruv raisiga yuboriladi.

Boshqaruvning navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilingan holda Boshqaruv raisi yig'ilish kuni, yig'ilishning kun tartibi, Boshqaruv a'zolariga taqdim etiladigan materiallar ro'yxati, qayd etilgan materiallarni taqdim etish muddatlarini belgilashi, shuningdek, Boshqaruv kotibiga Bankning navbatdan tashqari yig'ilishini o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha chora-tadbirlarni ko'rish haqida ko'rsatma beradi.

32. Bank Boshqaruvi o'z ishini tashkil qilish uchun Boshqaruv kotibini tayinlashi mumkin. Boshqaruv kotibi Bank Boshqaruv majlislariga materiallarni tayyorlaydi, Boshqaruv a'zolariga materiallarni yetkazadi, Bank Boshqaruv majlislari bayonnomalarini rasmiylashtiradi va saqlaydi, Bank Boshqaruvining ish yuritish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi.

Boshqaruv kotibi Bank Boshqaruv a'zosi hisoblanmaydigan Bank xodimi bo'lishi lozim. Boshqaruv kotibi o'z vazifasini bajarish munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lgan bank va tijorat siri hisoblangan hamda konfidensial ma'lumotlarni sir saqlashga majbur.

Boshqaruv kotibi Bank Boshqaruvi majlislarini o'tkazishga tayyorganlik ko'rish uchun zarur axborot va ma'lumotlarni so'rash va olish huquqiga ega.

33. Bank Boshqaruvi majlislarini Boshqaruv raisi, u bo'lmagan taqdirda uning o'rinbosarlaridan biri boshqaradi.

Boshqaruv majlislari, odatda, yopiq holda o'tkaziladi. Majlis ishtirokchilarining davrasini Boshqaruv raisi belgilaydi.

34. Bank Boshqaruvi majlisida qarorlar, agar qonunchilik hujjatlarida hamda Bank Ustavida va mazkur Nizomda o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Bank Boshqaruvi majlisida masalalar hal etilayotganda Bank Boshqaruvining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

Bank Boshqaruvining bir a'zosi o'z ovozini Bank Boshqaruvining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi. Bank Boshqaruvi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Bank Boshqaruvi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Bank Boshqaruvining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li

bilan) barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

35. Boshqaruv a'zosi (yoki a'zolari) qabul qilingan qarordan norozi bo'lsa, bu haqda Bank Kuzatuv kengashiga ma'lum qilishga haqli.

Shuningdek, majlisda ishtirok etgan Boshqaruv a'zosi Boshqaruv majlisining kun tartibidagi masala(lar) bo'yicha qabul qilingan qarorlar bo'yicha rozi bo'lmagan taqdirda o'z fikrini yozma ravishda bayon etish huquqiga ega va bu Boshqaruv bayonnomasiga ilova qilinadi.

36. Bank Boshqaruvining ikki va undan ko'proq a'zosi affillangan shaxslar bo'lgan holatda, bitim bo'yicha qaror Bank Kuzatuv kengashi tomonidan kabul kilinadi. Bankning affillangan shaxsi Bank Boshqaruvi yoki Kuzatuv kengashi yoxud Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilinishida muhokamada ishtirok etishga va ovoz berishga haqli emas.

37. Bank Boshqaruvi majlisida bayonnomasi yuritiladi. Bank Boshqaruvi majlis bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 3 (Uch) kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda hozir bo'lgan shaxslar;

majlisning kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar.

Bayonnomada shuningdek, boshqa zarur ma'lumotlar ham qayd etilishi mumkin.

Bank Boshqaruvi majlis bayonnomasi majlisda ishtirok etgan Boshqaruv a'zolari tomonidan imzolanadi.

38. Bank Boshqaruvi majlis bayonnomasidan ko'chirma/nusxalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga, Bankning Kuzatuv kengashiga, Bankning Taftishchisiga, tashqi auditorga ularning talabiga ko'ra taqdim etilishi mumkin.

39. Bank Boshqaruvi majlis bayonnomasining asl nusxalari va uning materiallari Boshqaruv kotibida saqlanadi.

40. Bank Boshqaruvi qarorlari ijrochilarga Bank Boshqaruvi majlis bayonnomalaridagi alohida masalalari bo'yicha ko'chirmalar ko'rinishida Boshqaruv kotibi tomonidan imzolangan va muhri bilan tasdiqlangan holda yetkaziladi.

## **7-bob. Bank faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish**

41. Bank Boshqaruvi Bankning moliyaviy ahvoli va faoliyati to'g'risida vaqti-vaqti bilan (har chorakda kamida bir marta) sharhlar hamda yozma hisobotlarni, jumladan ularni yaxshilashga oid tavsiyalar bilan Bank Kuzatuv kengashi oldida hisobot beradi.

42. Bank faoliyati ichki audit xizmati tomonidan muntazam ravishda tekshirilib (yoki o'rganilib) boriladi hamda uning natijalari yuzasidan Bank Boshqaruviga tekshirish (yoki o'rganish) natijalari bo'yicha xulosa (yoki ma'lumot)lar taqdim etiladi.

Bank Boshqaruvi tomonidan ichki audit xizmatining tekshirish (yoki o'rganish) natijalari bo'yicha taqdim etgan xulosa (yoki ma'lumot)lari muhokama qilinib, kamchiliklarni bartaraf etish va/yoki berilgan takliflar bo'yicha tegishli xulosalar asosida qarorlar qabul qiladi.

43. Bank faoliyati har yili kamida bir marta tashqi audit tekshiruvidan o'tkaziladi.

44. Bank Boshqaruvi Bank faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha vazifalarni bajarish uchun o'z vakolati doirasida tegishli qo'mita (va/yoki komissiya)lar tashkil etishi va ular to'g'risida nizomlarni ishlab chiqishi mumkin.

45. Har bir qo'mita (va/yoki komissiya) o'z faoliyat masalalari bo'yicha mustaqil yig'ilishlar o'tkazadi va Bank Boshqaruvi oldida amalga oshirilgan ishlar yakunlari to'g'risida hisobot berib boradi.

46. Bank Boshqaruvi qo'mita (va/yoki komissiya)larga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlar ijrosini muntazam ravishda nazorat qilishi, bunga yetarlicha vaqt ajratishi va qo'mita (va/yoki komissiya)larning tajribali a'zolar bilan butlanishini ta'minlashi shart.

## **8-bob. Kadrlar siyosatini amalga oshirish**

47. Bank Boshqaruvi kadrlar siyosatini, Bankka yuqori malakali, bilimdon, tajribali, ilg'or fikrlovchi, tashabbuskor va mas'uliyatli rahbarlar hamda xodimlarni jalb etish, ularning Bank Ustavi bilan belgilangan vazifalarni bajarishdagi javobgarligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqib, Bank Kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritadi.

48. Kadrlar siyosati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Bankda ishlash uchun mutaxassislarni tanlash tizimi;

Bank xodimlarini mukofotlash, rag'batlantirish va intizomiy javobgarlik chorasini ko'rish tizimi;

o'qitish va qayta o'qitish dasturi;

yuqori lavozimlarda bo'sh o'rinlar paydo bo'lgan hollarda vorislik siyosati;

Bankning tarkibiy tuzilma rahbarlarini, mutaxassislar va boshqa xodimlarini ishdan bo'shatish majburiy bo'lib qoladigan hollarni aniqlash;

xodimlar faoliyatini baholashning rasmiy jarayoni.

49. Bank Boshqaruvi Bank va uning xodimlari o'rtasidagi mehnat munosabatlari yollashning shartnoma tizimi asosida tashkil etilishini ta'minlaydi;

50. Bank Boshqaruvi qo'yidagilarni ishlab chiqib amalga oshiradi:

Bank tarkibiy tuzilma rahbarlari va mutaxassislarning ishiga baho berish

mezonlari;

Bank xodimlari korporativ etika kodeksi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish choralari;

bilimsizligi, nopokligi, manfaatlar to‘qnashuvi yoki boshqa sabablar oqibatida Bankning manfaatdor shaxslari o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalardan chetlashtiriladigan shart-sharoitlar ro‘yxati.

### **9-bob. Bank Boshqaruvi a‘zolarining javobgarligi**

51. Bank Boshqaruvi raisi va a‘zolari o‘z huquqlarini amalga oshirishda o‘z burchlarini bajarishda Bank manfaatlarini ko‘zlab ish tutishlari lozim. Bank Boshqaruvining a‘zolari qonunchilik hujjatlari va Bank Ustaviga muvofiq Bank va Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi oldida javobgardir.

Bank Boshqaruvi raisi va a‘zolarining Bank oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo‘ladi.

Agar Bank Boshqaruvi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida Bankka zarar yetkazilgan bo‘lsa va bunda Bank Boshqaruvi raisining yoki Boshqaruvi a‘zolarining yoxud ishonchli boshqaruvchining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, Bankning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda Bankning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladi.

52. Bank Boshqaruvi majlisida ovoz berishda qatnashmagan yoki Bankka ziyon yetishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergan Bank Boshqaruvi a‘zolari javobgarlikdan ozod qilinadi.

### **10-bob. Yakuniy qoidalar**

53. Mazkur Nizomga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

54. Ushbu Nizom talablariga rioya qilinmagan mas’ullar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

55. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

56. Ushbu Nizomning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lsa, ushbu bandlar o‘z kuchini yo‘qotadi va ushbu bandlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgunga qadar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.